

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

JO‘RAYEV ILXOM BAXRIDDIN O‘G‘LI

XX-XXI ASR BOSHLARIDA MIRZACHO‘L VOHASI AHOLISINING
IJTIMOYIY HOLATI VA MODDIY MADANIYATI TARIXI

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissyertation

Jo‘rayev Ilhom Baxriddin o‘g‘li

XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisining ijtimoiy holati va moddiy madaniyati tarixi..... 5

Жураев Илхом Бахриддин угли

Этнический состав и материальная культура населения Мирзачульского оазиса в начале XX-XXI века..... 27

Juraev Ilhom Baxriddin ugli

Ethnic composition and material culture of the population of the Mirzachol oasis at the beginning of the XX-XXI century..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

JO‘RAYEV ILXOM BAXRIDDIN O‘G‘LI

**XX-XXI ASR BOSHLARIDA MIRZACHO‘L VOHASI AHOLISINING
IJTIMOIY HOLATI VA MODDIY MADANIYATI TARIXI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tar1088 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boboyorov G'aybulla Bolliyeovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tursunov Saypulla Narzillayeovich
tarix fanlari doktori, professor

Xasanov Akram Mo'minovich
tarix fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajala beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____ kuni tarqatildi
(2023-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.J.Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
t.f.d. professor

N.N.Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
t.f.n., dotsent

Y.A.Ergasheva

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo xalqlari tarixi va madaniy antropologiya yoʻnalishlarining muhim mavzularidan biri Yevrosiyo hududlarida kechgan tarixiy jarayonlarni oʻrganish hisoblanadi. Ayniqsa, Yevrosiyo mintaqasining oʻzaro kontakt zonalarida tarixan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar mavjud boʻlib, ushbu aloqalarni rivojlantirish bugungi kunda katta eʼtibor qaratilayotgan sohalardan biridir. Shu oʻrinda Yevrosiyo kengliklarining ajralmas bir qismi boʻlmish Markaziy Osiyoda qadimgi davrlardan to oʻrta asrlargacha koʻchmanchi chorvadorlar va oʻtroq dehqon aholi orasida oʻzaro kontakt zonalar boʻlganini aytib oʻtish zarur. Markaziy Osiyodagi ana shunday kontakt zonalaridan biri boʻlmish Mirzachoʻl vohasida yaqin tarixda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarni kuzatish orqali bu holatga guvoh boʻlish mumkin. Bu hudud ham koʻchmanchi chorvador, ham oʻtroq dehqon aholi oʻzaro aloqalarga kirishgan tarixiy tegra sifatida nomadolog (koʻchmanchishunos) va madaniy antropologiya sohasi mutaxassislarining diqqatini oʻziga tortishi ham aynan bu yerning ushbu xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Jahondagi, xususan, Yevropadagi yetakchi ilmiy markazlar Markaziy Osiyo tarixini oʻrganar ekan, Sirdaryo havzasida, xususan, Mirzachoʻl vohasiga yuz bergan tarixiy voqealarga ham katta eʼtibor qaratadilar. Kezi kelganda aytib oʻtish kerak, mintaqada, xususan, yurtimizda tarix yoʻnalishida yaqin yillargacha olib borilgan izlanishlar koʻproq oʻtroq va shahar madaniyatiga bagʻishlangan boʻlib, koʻchmanchi chorvadorlarning roli yetarlicha yoritilmagan. Holbuki, oʻz geografik joylashuviga koʻra, ham dehqonchilik, ham chorvachilik xoʻjaliklarini yuritishga qulay boʻlgan Mirzachoʻl vohasi tarixining yaqin oʻtmishini bu yer aholisining ijtimoiy hayoti va etnomadaniy aloqalari doirasida koʻrib chiqish bu masalani yoritishda oʻziga xos oʻrin tutadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, oʻz oʻtmishimizga xolis yondashish imkoniyati tugʻildi. Ayniqsa, soʻnggi yillarda tarix fanidagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilayotgan chora-tadbirlar tufayli yurtimizdagi har bir tarixiy-geografik viloyat oʻtmishini sinchiklar oʻrganish ishlari amalga oshirila boshladi. Shu jihatdan olganda, qadimgi Choch, Fargʻona, Sugʻd, Xorazm, Toxariston kabi bugungi Mirzachoʻl vohasini ham qamrab olgan tarixiy Ustrushona oʻtmishini oʻrganishga eʼtibor qaratila boshladi.

Tanlab olinayotgan mavzu ushbu tarixiy-geografik viloyatning izdoshlaridan biri boʻlmish Mirzachoʻl vohasiga qaratiladi. Yaʼni Mirzachoʻl vohasi aholisining urf-odatlar va moddiy madaniyatini oʻrganish orqali mintaqa xalqlariga xos milliy qadriyatlar ochib beriladi. Bu esa ushbu mavzuni tadqiqot obyekt sifatida tanlanishiga asos boʻlib xizmat qildi.

Mazkur tadqiqot Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”¹ gi va 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” Фармон // <https://lex.uz/docs/3107036>

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2016-yil 18-iyuldagi PQ-2562-sonli “O‘zbekiston tarixi sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va hukumatning boshqa qarorlarida belgilangan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, xalqimizning boy tarixi, moddiy va madaniy merosini ilmiy o‘rganish, targ‘ib qilish va boyitib borish kabi vazifalarni muayyan darajada bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

XX asr – XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisining etnik tarkibi va moddiy madaniyati mavzusida maxsus tanlab olingan tadqiqotlar mavjud bo‘lmasa-da, mavzuga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita tegishli bo‘lgan bir qator izlanishlar borligini aytib o‘tish kerak. Hudud va mavzuga tegishli ilk ma’lumotlar XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasiga tashrif buyurgan G.Vamberi, A.D.Grebenkin, A.P.Fedchenko, Yu.Skayler² kabi yevropa va rossiyalik mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlarda o‘z askini topgan. Sovet davri etnograflaridan V.G.Moshkova, B.X.Karmisheva asarlarida³ u yoki bu darajada o‘z aksini topgan. Markaziy Osiyo, xususan, mintaqa va unga qo‘shni o‘lkalarda yuz bergan etnik jarayonlar T.Sultanov, S.Ataniyazov, R.X.Kereytov, M.Alpibes va boshqalarning izlanishlarida⁴ birmuncha o‘z ifodasini topgan bo‘lib, Mirzacho‘l vohasi aholisining etnik tarkibini aniqlash va qardosh xalqlar bilan solishtirishda muayyan darajada metodologik asos bera oladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilgan bir qator izlanishlarda ham bu mavzu birmuncha o‘z ifodasini topgan bo‘lib, B.To‘ychiboyev, Q.Qashqirli⁵,

² Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – СПб., 1865; Гребенкин А.Д. Таджики // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу политехнической выставки. Вып.2. – М., 1872. – С.1-3; Федченко А.П. Первый отчёт туркестанской учёной экспедиции // Федченко А.П. Путешествие в Туркестан. – М., 1950. – С. 65-66; Федченко А.П. Топографический очерк Зеравшанской долины и заметки о соседних бекствах и памятниках Самарканда (с картой Зеравшанской долины) // Изв. о-ва любителей естествознания, антропологии и этнографии. Т. VIII. Вып. – Ташкент-Москва: 1870 – С. 130-131; Скайлер Ю. Туркестон: Россия Туркестони, Кўкон, Бухоро ва Ғулжага саёхат кайдлари. Кириш, инглиз тилидан қискартирилган таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлари муаллифи З. Саидбобоев. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

³ Мошкова В.Г. Некоторые общие элементы в родоплеменном составе узбеков, каракалпаков и туркмен. // Материалы по археологии и этнографии Узбекистана: Труды института Истории и археологии АН УзССР. Т. 2. – Ташкент, 1950. – С. 141-149; Мошкова В.Г. Ковроделие узбеков племени туркмен // Ковры народов Средней Азии. – Ташкент, 1977. – С. 69-77; Кармышева Б.Х., Пещерова Е.М. Материалы этнографического обследования таджиков Нуратинского хребта // СЭ. – 1964. – №1. – С. 7-21; Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – М.: Наука, 1976.

⁴ Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен иланий» // Средняя Азия в древности и средневековье. – М.: Наука, 1977. – С. 165-176; Атанязов С. Этнонимы в туркменском языке. – Ашгабат: Ылым, 1994; Керейтов Р.Х. Ногайцы. Особенности этнической истории и бытовой культуры. – Ставрополь: «Сервисшкола», 2009; Алпысбес М. Шежире казахов: источнике и традиции. – Астана, 2013.

⁵ Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил комуси. – Тошкент: Академнашр, 2012.

A.Ashirov⁶, G.Zunnunova⁷, M.Pardayev, B.To‘ychiboyev⁸ va boshqalarning ilmiy ishlari ham metodologik, ham ilmiy va amaliy jihatdan tanlab olinayotgan tadqiqot uchun qo‘llanma vazifasini bajaradi. Garchi ushbu tadqiqotlarning ko‘pchiligi o‘rganilishi ko‘zda tutilayotgan mavzuga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli bo‘lmasa-da, regionlarni o‘zaro taqqoslashda asqotadi deb o‘ylaymiz. Mirzacho‘l vohasi aholisining etnik tarkibi va moddiy madaniyati tarixini o‘rganishda bevosita mamlakatimizda olib borilgan izlanishlar alohida o‘ringa ega. Xususan, O‘zbekistonda B.Ahmedov, K.Shoniyozov, M.Ermatov, X.Doniyorov, U.To‘ychiyev, A.Asqarov, A.Malikov kabi tarixchi va etnograf olimlar tadqiqotlarida voha va unga qo‘shni hududlar aholisining etnik tarixiga doir qimmatli fikrlar uchraydi⁹. Shuningdek, voha etnotoponimikasi S.Qorayevning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan¹⁰.

Ushbu muammoning o‘rganilishi hozirga qadar tarixshunoslik nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilinmagan. Bu ish Guliston davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlariga kiradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Guliston davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasi doirasida №AIF1/2 “Oliy ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishda klasterli yondashuv: Guliston davlat universiteti va ishlab chiqarish integratsiyasi tizimida “O‘quv-ilmiy kompleks” tashkil etish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan (2020-2022 yy.).

Tadqiqotning maqsadi. XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisining etnik tarkibi va moddiy madaniyatini o‘rganish.

Tadqiqotning vazifalari:

XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisining moddiy va am‘anaviy madaniyati tarixini yoritish;

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr o‘rtalarida Mirzacho‘l vohasida ijtimoiy va madaniy hayotini tahlil qilish;

XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida Sirdaryo viloyatida yuz bergan ijtimoiy-madaniy jarayonlarni ko‘rib chiqish;

Mirzacho‘l vohasi aholisining ijtimoiy munosabatlarini yoritish;

⁶ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007; Аширов А. Ўзбек маданиятида сув. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

⁷ Зунунова Г.Ш. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX – начало XXI в.). – Ташкент: Extremum-press, 2013.

⁸ Пардаев М.Х., Тўйчибоев Б.Б. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда. – Тошкент, 2017.

⁹ Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965; Шаниязов К. Узбеки-карлуки (историко-этнографический очерк). – Тошкент, 1965; Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Тошкент, 1974; Эрматов М. Этногенез и формирования узбекского народа. – Ташкент, 1968; Дониёров Х. Ўзбек халқи шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968; Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалекти. – Тошкент, 1976; Тўйчиев У. История расселения народов Узбекистана (по данным топонимии Зарафшанской долины). Автореф. канд.ист. наук. – Ташкент: ИИ АНРУз. 1990; Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015; Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана (XVIII – начало XX в.). – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2018.

¹⁰ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978; Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари / Масъул. муҳаррир: А. Мухаммаджонов. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005.

Mirzacho‘l vohasi aholisining geografik joylashuvi, aholining etnik tarkibi va madaniy xususiyatlarini tahlil qilsih;

XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisining moddiy madaniyatining o‘ziga xosliklarini yoritish;

XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisining xo‘jalik turmush tarzi va moddiy madaniyatini tahlil qilsih.

Tadqiqotning obyekti etib, XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisining etnik tarkibi va moddiy madaniyatini o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tipologik, solishtirma va kompleks tahlil, davrlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asrning ikkinchi yarmida mahalliy hukumat tomonidan olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, yangi ekin-tikin maydonlarining o‘zlashtirilishi, shu maqsadda vohaga mamlakatimizning ko‘plab hududlaridan aholi ko‘chirib kelinishi natijasida Mirzacho‘l vohasi aholisining tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz bergani, mahalliy aholisi asosan o‘zbek va qozoqlardan iborat vohaga respublikamizning vodiy (Farg‘ona) va voha (asosan Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va b.) kabi turli hududlaridan ko‘chib kelgan aholi hisobiga boyigani dalillangan;

Mirzacho‘l vohasi aholisining til va sheva xususiyatlari tahlil qilinib, vohada qadimdan mahalliy aholi vakillari sifatida turkiy tilli (o‘zbek, qozoq, qirg‘iz) va forsiy (tojik) tilli aholi yashaganligi va ular orasida etnomadaniy jihatdan o‘zaro yaxlitlik yuzaga kelganligi, buning tasdig‘i, ayniqsa ushbu xalqlar vakillariga xos o‘troq dehqonlar va dashtlik chorvadorlarga xos ma’naviy va moddiy madaniyat bilan bog‘liq atamalarda o‘z ifodasini topganligi aniqlangan;

Mirzacho‘l vohasi aholisining xo‘jalik turmush tarzi va moddiy madaniyatida qadimiy an‘analar birmuncha saqlangani, shu bilan birga, vohaning mahalliy aholisi va respublikamizning turli hududlaridan ko‘chib kelgan aholiga xos an‘analar o‘zaro qorishuvi natijasida bir qator transformatsiya jarayonlari yuzaga kelganligi isbotlangan;

Voha aholisining oila va nikoh marosimlari, qarindosh-urug‘chilik atamalari, ma’naviy va moddiy madaniyati bilan bog‘liq urf-odatlarining qadimiy ildizlari ko‘plab etnografik (oila va nikoh, turarjoy, ot anjomlari, taomlanish madaniyati) va lingvistik ma’lumotlar (o‘zbek, qozoq, qirg‘iz tillariga xos umumiy atamalar) asosida ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisi tarixi va moddiy madaniyati o‘ziga xos bo‘lib, uning negizida vohaning o‘ziga xos geografik joylashuvi va iqlim sharoiti yotadi. O‘rta Osiyo mintaqasining tarixan nisbatan qattiq iqlim sharoitiga ega ushbu hududida qadimgi davr va o‘rta asrlarda aholi maskanlari birmuncha kam miqdorni tashkil etgan bo‘lib, yaqin yuzyillikda bu hududning jadal o‘zlashtirilishi natijasida aholi soni ortgani, turli madaniyatlar orasida o‘zaro qorishuv jaroyonlari yuz bergani kuzatildi.

Mirzacho‘l vohasi xalqi etnomadaniyatida ushbu vohada kechgan jarayonlarni o‘rganish orqali mintaqa xalqlari etnogenezi, davlatchiligi va madaniy jarayonlarni kuzatish va boshqa regionlar bilan taqqoslash orqali bu orada muayyan ilmiy natijalarga erishish mumkin. Qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalar oliy ta‘lim muassasalari, maktab va akademik litseylarda tabobat tarixini o‘qitishda darslik, o‘quv qo‘llanma va dasturlar tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishning har bir masala yozma va moddiy manbalar bilan taqqoslangani bilan izohlanib, bu mavzuda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardagi fikr va mulohazalar jalb qilingani, tarix fanida tan olingan usullar va nazariy yondashuvlarning qo‘llanilgani, tarixiy va arxeologik ilmiy adabiyotlardan foydalanilgani, xulosalar va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan o‘z tasdig‘ini topgan.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** shundaki, XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisining etnik tarixi va moddiy madaniyati bo‘yicha muayyan bilimlarga ega bo‘lish imkonini beradi. Chunonchi, voha aholisi orasida mavjud bo‘lgan moddiy madaniyat va ma‘naviy hayotga tegishli turli an‘analarni o‘rganish orqali milliy qadriyatlarini saqlab qolishga yordam beradi. Keng dashtliklardan iborat Mirzacho‘l vohasining o‘tgan yarim asrdan ortiq vaqt mobaynida kishilarning yuksak matonati tufayli, inson mehnati evaziga qay darajada o‘zlashtirilganligi, bu holat mintaqa xalqlari tarixida kam kuzatilgan holat bo‘lib, so‘nggi yuzyillikning katta yutuqlaridan biri sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bakalavr-tarixchi talabalar uchun “O‘zbekiston tarixi”, “Mintaqashunoslik”, “O‘zbek xalqi etnografiyasi”, “Elshunoslik” “Tarixiy o‘lkashunoslik”, “O‘zbek davlatchiligi tarixi” fanlari hamda magistratura bosqichi “Etnografiya” mutaxassisligi bo‘yicha “O‘rta Osiyo xalqlari etnografiyasi” fanidan o‘quv qo‘llanmalar va darsliklarni yaratishda keng foydalanish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarix fanining tsivilizatsiyalar tarixi, etnomadaniyat, O‘zbekiston tarixi, etnologiya, o‘lkashunoslik sohalaridagi fanlararo yangicha yondashuvlar va ilmiy yo‘nalishlarni yaratish vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, qadimgi tarixga oid ilmiy-nazariy, qiyosiy tahlil va umumlashtirish uslublarini takomillashtirishga imkon berishda ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisining etnik tarkibi va moddiy madaniyati tadqiq qilish jarayonida erishilgan natijalar asosida:

O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi “O‘zbekiston tarixi” kanalida Mirzacho‘l vohasi aholisining ma‘naviy va moddiy madaniyati tarixini yoritishda etnografik va manbashunoslik nuqtai nazaridan yondashilib aniqlangan yangiliklardan foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali davlat unitar korxonasining 2022-yil 26-dekabrda 02G‘Rv-33-22-sonli ma‘lumotnomasi). Bu ko‘rsatuvlar ildizlari qadimgi borib tutashuvchi mintaqa xalqlari, ularning o‘zaro moddiy va ma‘naviy aloqalari to‘g‘risida tushunchalar hosil bo‘lishida yordam bergan. Mirzacho‘l vohasining mintaqa ijtimoiy-siyosiy

hayotida o'ziga xos o'rin tutganligi, mazmun-mohiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotchi tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida olingan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan xalqaro "Oltin Meros" xayriya jamoat fondining targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Xalqaro "Oltin Meros" xayriya jamoat fondining 2022-yil 28-noyabrdagi 01-44-son ma'lumotnomasi). Natijada Mirzacho'l vohasi aholisining so'nggi o'rta asrlar va yaqin tarixdagi etnografik xususiyatlari bo'yicha mahalliy va xorijiy tashrif buyuruvchilarga yangi ma'lumotlar berish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zR OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarida chop etilgan. 7 ta maqola to'plamlardagi ilmiy tezis hamda maqolalarda o'z aksini topgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan ushbu ilmiy tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar hamda shartli qisqartmalar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 158 betdan iborat

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning O'zR fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi va tarix fani uchun nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mirzacho'l vohasi aholisi bo'yicha manba va adabiyotlar tahlili**" deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi paragrafi "*XX-XXI asr boshlarida Mirzacho'l vohasi aholisining moddiy madaniyati tarixiga doir manbalar tahlili*" mavzusidadir. So'nggi o'rta asrlarda, ya'ni yaqin tarixda Mirzacho'l vohasi va uning atroflaridagi hududlar bir qator farqli siyosiy jarayonlarga sahna bo'ldi. Avvalo, voha janub va janubi-g'arbdan Jizzax va Nurota vohalariga qo'shnichiligi tufayli Buxoro amirligi (1753-1920) siyosiy ta'sirida qolgan bo'lsa, keyinchalik ma'lum bir muddat bu hududda Qo'qon xonligi (1709-1876) ta'siri kuchayadi. Bu hududlarning goh Buxoro, goh Qo'qon xonligi tas'irida bo'lishi voha aholisi ijtimoiy va madaniy hayotida o'ziga xos iz qoldirdi. XIX asrning so'nggi choragiga kelib esa Mirzacho'l vohasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va vohada imperiya boshqaruvining o'rnatilishi bu yer tarixida yangicha jarayonlarni boshlab berdi.

Mirzacho'l vohasi tarixining bu davrlari tarixi asosan Buxoro va Qo'qon tarixnavisligiga oid ko'plab qo'lyozma asarlar, elchi, diplomat, sayyoh, harbiy,

sharqshunos va hokazo kabi rus mualliflarining qaydlari hamda XIX asr oxiri – XX asrda yig‘ilgan etnografik ma‘lumotlar va dala materiallarida o‘z ifodasini topgan. Ushbu manba va materiallar orasida avvalo Buxoro amirligi tarixnavisligiga xos ayrim asarlarga to‘xtalib o‘tsak. Amirlik tarixiga oid qo‘lyozma asarlar asosan fors tilida yozilgan bo‘lib, mintaqa tarixi bilan bog‘liq adabiyotlarning bir qismi Buxoro amirligining mahalliy muhitiga tegishlidir. Buxoro amirligining Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Urgut kabi yirik shaharlarida yozilgan forsiy tilli asarlardagi tarixiy ma‘lumotlar asosan Buxoro amirligining markaziy hududlaridagi siyosiy voqeliklarni qamrab olgan bo‘lsa-da, ayrim o‘rinlarda Nurota, Jizzax, Toshkent, O‘ratepa, Xo‘jand bilan bog‘liq voqeliklar yoritilishi jarayonida Mirzacho‘l vohasiga tegishli ayrim ma‘lumotlarga ham duch kelish mumkin. XIX asrning katta bir qismida Buxoro – Qo‘qon orasida yuz bergan voqeliklar bayon qilinarkan ushbu vohadagi ayrim aholi maskanlarida bo‘lib o‘tgan voqeliklar ham tilga olingani ko‘zga tashlanadi¹¹.

XIX asrning birinchi yarmiga kelib Rossiya hukmron doiralarida Turkistonga bo‘lgan qiziqish mintaqani izchil o‘rganishga undadi. Bu davrda yozilgan asarlar ichida 1820-yilda Negri elchilik missiyasi tarkibida Buxoroga kelgan E.K.Meyendorf¹², 1833-yilda Buxoroda tatar mullasi Mirza Ja‘far nomi bilan to‘rt oy yashagan P.I.Demezov¹³, Butenov elchilik missiyasi bilan 1841-yilda Buxoro amirligida bo‘lgan sharqshunos N.Xano‘kov¹⁴ va boshqalarning asarlarini ta‘kidlab o‘tish kerak. Rossiyadan O‘rta Osiyoga kelgan har bir kishi – elchilik missiyasi a‘zosi, savdogar, zobit va boshqalar hukumat idoralaridan maxsus ko‘rsatmalar va yo‘riqnomalar olib, ularda o‘zbek xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, boshqaruv tartiblari, kommunikatsiya yo‘llari, shaharlar va boshqa harbiy-strategik masalalarga e‘tibor qaratish kerakligi ta‘kidlangan¹⁵.

1870-yillarda Buxoro amirligi bo‘yicha uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalarda o‘z davri uchun muhim etnografik ma‘lumotlar yig‘ilgan. Buxoro amirligidagi ma‘muriy birliklar bo‘yicha XIX asr o‘rtalari – XX asrlar ikkinchi yarmi oralig‘ida A.D.Grebenkin¹⁶, A.P.Fedchenko¹⁷, L.N.Sobolev¹⁸, A.P.Xoroshxin¹⁹ boshqalar tomonidan to‘plangan ma‘lumotlar Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-

¹¹ Каландарова Ф. Бухоро тарихининг Мирзо Сомий асарларида ёритилиши // “Бухоронинг жаҳон маданиятидаги ўрни” мавзусидаги Республика миқёсидаги онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Бухоро, 2020. – Б. 175-178.

¹² Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – С. 70-75.

¹³ Демезов П.И. Записки о Бухарском ханстве (Отчети П.И.Демезова и И.В.Веткевича). – М.: Наука, 1983. – С. 17-83.

¹⁴ Ханьков Н. Описания Бухарского ханства. – СПб., 1843.

¹⁵ Соловев М.М. Ученая экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. при участии натуралиста А.Лемана. – М.–Л., 1939. – С. 16-18.

¹⁶ Гребенкин А.Д. Узбеки // Сборник. Русский Туркестан: Сборник ст. Вып. II. – М., 1872. – С. 106.

¹⁷ Федченко А.П. Путешествие в Туркестан. – М.: Географгиз, 1953. – С. 17-31; Федченко А.П. Топографический очерк Зеравшанской долины и заметки о соседних бегствах и памятниках Самарканда (с картой Зеравшанской долины) // Изв. о-ва любителей естествознания, антропологии и этнографии. Т. VIII. Вып. – Ташкент-Москва: 1870 – С. 130-131.

¹⁸ Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зеравшанском округе с приложением списка населенных мест округа // Зап. Рус. геогр. о-ва по отделению статистики / Т.IV. – СПб., 1874. – С. 713-714.

¹⁹ Хорошхин А.П. Кызил-Кумский дневник. // Сборник статей, касающихся до(!) Туркестанского края. – СПб, 1876. – С. 400.

madaniy hayotida tutgan o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etib, ularda Mirzacho'l vohasi tarixiga oid ayrim qaydlarni uchratish mumkin.

Mirzacho'l vohasi va unga qo'shni hududlar aholisining ijtimoiy-madaniy va maishiy hayotiga tegishli ma'lumotlar XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasiga tashrif buyurgan bir qator xorijlik mualliflar asarlarida o'z aksini topgan. Jumladan, Yu.Skayler²⁰ kabi Yevropa va rossiyalik mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlarda bu hududlar bo'yicha muhim ma'lumotlar berilgan²¹.

XIX asrning so'nggi choragida Mirzacho'l vohasi va unga yaqin hududlar Chor Rossiyasi tarkibiga o'tib, bu yerlar imperiyaga qarashli Turkiston general-gubernatorligiga qaramog'iga olingach, vohaga imperiyaning markaziy hududlaridan ko'plab slavyan xalqlari – ruslar, beloruslar, ukrainlar ko'chirib keltirilib, yangi aholi maskanlari tashkil etila boshlaydi. Ko'chirish siyosati bog'liq statistik ma'lumotlar Mirzacho'lni o'zlashtirish bo'yicha Chor Rossiyasining Turkistondagi vakillari turli rejalar tuzib, vohaning aholisi nisbatan kam bo'lgan hududni o'zlashtirish orqali mintaqada rus tilli aholi sonini oshirish maqsad qilib olgan. Mirzacho'l vohasidagi bir necha slavyan (rus, ukrain, belorus) aholi maskanlari qad rostlagan. Mirzacho'lda tashkil topgan rus qishloqlari, ulardagi muammolar haqidagi ayrim ma'lumotlar knyaz V.I.Masalskiy asarida keltirib o'tilgan bo'lib²², ular asosida voha tarixining ayrim jihatlarini yoritishda muhim manba vazifasini o'taydi. A.Kaufman Rossiya imperiyasining qariyb yarim asrlik – 1861-1904-yillar oralig'idagi ko'chiruvchilik siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, yangi ko'chirilgan aholining mahalliy muhitga moslashuvi, tashkil etilgan dastlabki qishloqlarning xo'jaligi, ijtimoiy tarkibiga doir ma'lumotlarni qarab chiqqan²³.

Shuningdek, sovet davrida olib borilgan etnografik tadqiqotlarda ham Nurota, Jizzax va Toshkent vohalari aholisi turmush tarziga oid etnografik ma'lumotlar yig'ilishi jarayonida Mirzacho'l vohasi bilan bog'liq materiallarga ham e'tibor qaratilgan. Bu davrda taniqli etnograflardan V.G.Moshkova, B.X.Karmisheva²⁴ asarlarida u yoki bu darajada o'z aksini topgan ma'lumotlar esa garchi Mirzacho'l vohasiga to'g'ridan-to'g'ri tegishli bo'lmasa-da, vohaga tutash hududlar aholisi bo'yicha birlamchi materiallar bera oladi.

²⁰ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – СПб., 1865; Гребенкин А.Д. Таджики // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу политехнической выставки. Вып.2. – М., 1872. – С.1–3; Федченко А.П. Первый отчет туркестанской учёной экспедиции // Федченко А.П. Путешествие в Туркестан. – М., 1950. – С. 65-66; Федченко А.П. Топографический очерк Зеравшанской долины и заметки о соседних бекствах и памятниках Самарканда (с картой Зеравшанской долины) // Изв. о-ва любителей естествознания, антропологии и этнографии. Т. VIII. Вып. – Ташкент-Москва: 1870 – С. 130-131; Скайлер Ю. Туркестон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. Кириш, инглиз тилидан қискартирилган таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлари муаллифи З.Саидбобоев. – Тошкент: O'zbekiston, 2019.

²¹ Скайлер Ю. Туркестон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари ... – Б. 172-173.

²² Масальский В.И. Туркестанский край. – СПб.: Изд. А.Ф.Девриена, 1913.

²³ Кауфман А. Переселение и колонизация. – СПб.: Типография товарищества Общественная польза, 1905.

²⁴ Мошкова В.Г. Некоторые общие элементы в родоплеменном составе узбеков, каракалпаков и туркмен // Материалы по археологии и этнографии Узбекистана: Труды института Истории и археологии АН УзССР. Т. 2. – Ташкент, 1950. – С. 141-149; Мошкова В.Г. Ковроделие узбеков племени туркмен // Ковры народов Средней Азии. – Ташкент, 1977. – С. 69-77.

Xullas, Mirzacho‘l vohasi aholisining yaqin o‘tmishdagi tarixi, ayniqsa, aholining etnik tarkibi, ijtimoiy-maishiy hayoti, urf-odatlar va an‘analariga doir ma‘lumotlar mintaqaning boshqa bir qator hududlariga nisbatan birmuncha kam ma‘lumotlar etib kelgan. Shunday bo‘lishiga qaramay, turli manbalardagi uzuq-yuluq ma‘lumotlarni, xususan, yozma manba ma‘lumotlari va etnografik materiallarni o‘zaro taqqoslagan holda voha tarixining o‘ziga xos jihatlarini yoritish mumkin. Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “Mirzacho‘l vohasi aholisining xo‘jalik turmush tarzi, moddiy va ma‘naviy madaniyatiga oid ilmiy-tarixiy adabiyotlar tahlili” deb nomlangan. Avvalo aytib o‘tish kerak, Mirzacho‘l vohasi iqtisodiy va madaniy markazlari, aholisi, etnik tarkibi, urf-odatlar va xo‘jalik turmush tarzi bo‘yicha ma‘lumotlarning sezilarli bir qismi Chor Rossiyasi davriga to‘g‘ri keladi. Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan Turkistonga yuborilgan ma‘muriyat vakillari va rus sharqshunoslari tomonidan XIX asr oxiri – XX asr boshlari Mirzacho‘l vohasining ijtimoiy, iqtisodiy ahvoli va tarixiga oid ma‘lumotlar yig‘ilgan. Bu masala bo‘yicha maxsus maqola yozgan N.Mirzayevaning ta‘kidlashicha, M. Mirzacho‘l vohasini XIX asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy va etnodemografik holati, Rossiya imperiyasining ko‘chiruvchilik siyosati va hududga rus aholisining kirib kelishi, bu yerda tashkil topgan rus qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga oid ayrim ma‘lumotlarni Rossiya imperiyasi ma‘muriyati vakillari bo‘lgan A.I.Maksheev, L.Kostenko, N.Gavrilov, V.I.Masalskiy, A.A.Kushakevich, N.Vasilev, A.Kaufman, A.Kursish, M.M.Bushuev, A.V.Krivoshein, P.Skripiev, A.Kuplast, V.F.Karavayev, V.Voshinin va boshqalarning asarlarida uchratish mumkin²⁵.

Ushbu tadqiqotlarda Mirzacho‘l hududining o‘zlashtirilishi, vohada istiqomat qiluvchi mahalliy xalqlar va bu erda tashkil etilgan rus qishloqlari aholisining xo‘jalik va madaniy hayotiga doir ma‘lumotlar ayrim rus sharqshunoslari asarlarida umumiy holatda bayon etilgani ko‘zga tashlanadi²⁶. Ushbu tadqiqotchilar qatoriga atoqli sharqshunos V.V.Bartoldning Turkistonning sug‘orilish tizimi tarixiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlarini ham kiritish mumkin. Tadqiqotchi Mirzacho‘l vohasi aholisi, tarixi, sug‘orish ishlarida qo‘llanilgan mahalliy tajribalar masalasiga ham to‘xtalib o‘tgan²⁷. XIX asrning 60-70-yillarida A.I.Maksheev, A.A.Kushakevich va L.Kostenkolar Mirzacho‘l hududida yashagan mahalliy aholining joylashuvi, etnik ahvoli va xo‘jalik tarzi, sug‘orish tarmoqlari haqida qimmatli statistik ma‘lumotlar keltirishgan²⁸. N.Gavrilov Turkistonning Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona

²⁵ Васильев Н. Кочевники Туркестана (Опыт экономического обзора). – Самарканд: Типо-Литография Н.В. Полтаранова, 1890. – 162 с.; Наливкин В. Туземцы раньше и теперь. Очерк В.П.Наливкина. – Ташкент: Изд. А.Л.Кирснера, 1913. – 144 с.; Лавров М.В. Туркестан. География и история края. – М.: Думнов, Клочков, Луковников и К., 1914. – 198 с.

²⁶ Мирзаева Н.Ж. Рус таджикотчилари асарларида Мирзачўл воҳаси тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари) // XIX-XX аср бошларида Марказий Осиёда интеллектуал мерос: анъаналар ва инновациялар илмий тўплами. – Тошкент, 2018. – Б. 129-134.

²⁷ Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. – СПб., 1914; Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: Изд. АН СССР, 1927. – 25 с.

²⁸ Макшеев А.И. Географические, этнографические и статистические материалы о Туркестанском край. Записки Императорского Русского географического общества по отделению статистики. – СПб., 1871. – 60 с.; Костенко Л. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. – СПб.: Изд. А.Бабунова, 1871. – 358 с.; Кушакевич А. Сведения о Ходжентском уезде. – СПб., 1875. – 20 с.

viloyatlaridagi ko‘chirish harakatining ahvoriga baho berish bilan bir qatorda, Mirzacho‘lni o‘zlashtirish yuzasidan ham qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tgan²⁹.

A.Kaufman esa Rossiya imperiyasining 1861-1904-yillar oralig‘idagi ko‘chiruvchilik siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari va ko‘chirib keltirilgan aholining mahalliy muhitga moslashuvi jarayoni, bu yerda tashkil etilgan dastlabki qishloqlarning xo‘jaligi, ijtimoiy tarkibini qarab chiqqan. Shuningdek, u Mirzacho‘lda tashkil etilgan rus qishloqlari aholisining mavjud ekin dalalaridan xo‘jasizlarcha foydalanayotganliklari va asosan g‘alla etishtirish bilan shug‘ulanganliklari sababli yetarlicha daromad ololmagan, degan xulosaga kelgan³⁰.

Mirzacho‘lning tabiati va unda aholi joylashuvi shart-sharoitlari haqida N.N.Leonova va N.I.Leonovlar: “Mirzacho‘l vohasi Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘riga kelib adirliklar bilan aralashib ketadi. Bir zamonlar har bir adirlik oralig‘idagi soylardan suvlar oqib, cho‘l hududini ham sug‘organ. Asta-sekin suv oqimi adirlik soylarida kamayib, aholi tog‘ atroflariga va daryo qirg‘oqlariga borib o‘rnashgan. Mirzacho‘l hududida yaqin 90-yillardan avval hech qanday qishloq bo‘lmagan. Faqatgina Toshkent-Jizzax-Samarqand-Buxoro savdo tarmog‘i va karvonsaroylar mavjud edi, xolos” degan fikrlar bildirishgan³¹.

Mirzacho‘l vohasi iqtisodiy va madaniy markazlari, aholisi, etnik tarkibi, urf-odatlar va xo‘jalik turmush tarzi bo‘yicha ma’lumotlarning sezilarli bir qismi sobiq sovet davriga to‘g‘ri keladi. A.G.Abdunabiyevning 1959-yilda yozilgan “Mirzacho‘lni o‘zlashtirilishi tarixidan” deb nomlangan risolasida vohani o‘zlashtirilishi bo‘yicha birmuncha ma’lumotlar olish mumkin³². Mirzacho‘l vohasining o‘zlashtirilishi, bu erning sug‘orish tizimi va tuproqning sho‘rlanishi masalalari yoritilgan bir qator sof ilmiy tadqiqotlar ham olib borildi. Jumladan, M.Abdurazzoqovning “Sho‘r erlarni o‘zlashtirish usullari” nomli ilmiy risolasida vohaning o‘zlashtirilish tarixiga ham birmuncha to‘xtalib o‘tilgani ko‘zga tashlanadi³³.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishida qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan bir qatorda mintaqada ekologiyaning buzilishi, ko‘plab yerlarning ortiqcha sho‘rlanishi natijasida vohada kelib chiqqan iqtisodiy va ijtimoiy muammolar masalasi har ko‘tarila boshladi. A.Razzoqovning “O‘zbekistonda paxtachilik tarixi (o‘tmish va hozir)” deb nomlangan monografiyasida bu masalalar yoritilishi jarayonida Mirzacho‘l vohasidagi ahvol, aholi turmush tarziga ekologik muammolarning ta’siri masalalari ham ko‘rib chiqilgan³⁴. Mirzacho‘l vohasida XIX asr oxirlari – XX asrda kechgan jarayonlarni tadqiq qilar ekanmiz albatta bu masalada Toshkent, Nurota, Jizzax va hokazo qo‘shni hududlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda Mirzacho‘l vohasi aholisi bilan bog‘liq masalalarga ham to‘xtalib o‘tilganligiga ko‘zimiz tushadi.

²⁹ Гаврилов Н. Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сыр-Дарьинская, Самаркандская и Ферганская). – Спб., 1911.

³⁰ Кауфман А. Переселение и колонизация. – Спб.: Типография товарищества Общественная польза, 1905.

³¹ Леонова Н.Н., Леонов Н. И. Голодная степь (Историко-географический очерк). – Ташкент, 1957. – С. 73.

³² Абдунабиев А.Г. Мирзачўлни ўзлаштирилиши тарихидан. – Тошкент: Қизил Ўзбекистон – Правда Востока, 1959; Абдунабиев А.Г. Мирзачўлнинг бугуни, эртаси. – Тошкент, 1964. – Б. 4-30.

³³ Абдуразоқов Қ. Шўр ерларни ўзлаштириш усуллари. – Тошкент, 1960. – Б. 5-20.

³⁴ Раizzoқов А. Ўзбекистонда пахтачилик тарихи (ўтмиш ва hozir). – Тошкент, 1994. – Б. 216, 219, 229.

Nurota va Jizzax vohasi etnomadaniyatini tadqiq etgan izlanuvchilar Mirzacho‘l vohasiga ham birmuncha e‘tibor berganligi diqqatni tortadi. T.Salimov Nurota vohasining o‘zbek-turkman deb ataluvchi o‘zbek aholisining vohada tarqalishini o‘rganib, ularning Mirzacho‘l vohasiga tutash hududlardagi qismlari haqida ham birmuncha to‘xtalib o‘tadi³⁵. Unga ko‘ra, Surxon vohasining turkman-juz deb ataluvchi o‘zbeklari Sirdaryo, O‘ratepa va Nurota vohasi aholisi bilan bog‘liqligi, ularning ajdodlari qachonlardir ushbu hududlardan Surxon vohasiga ko‘chganliklari to‘g‘risida xalq og‘zaki rivoyatlari uchraydi³⁶. Nurota vohasi aholisining etnomadaniy xususiyatlari bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqot olib borgan A.Tog‘ayev Nurota vohasi o‘zbek naymanlarining XX asr 50-60-yillarida Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi jarayonida Sirdaryo viloyatning tuman va yirik aholi maskanlari bo‘lmish “Malik”, “Boyovut”, “Paxtakor” kabi hududlariga ko‘chib borib joylashganligini yozadi³⁷.

So‘nggi o‘rta asrlarda Surxon vohasi, Hisor tog‘lari bo‘ylab shimol va shimoli-sharqqa – Samarqand, Toshkent va Farg‘ona viloyatlariga qarab siljigan ayrim ko‘chmanchi o‘zbek urug‘lari bilan bog‘liq jarayonlar Mirzacho‘l – Sirdaryo havzalari bo‘ylab amalga oshirilganligi o‘z davri yozma manbalarida aks etgan. Tadqiqotchilarga ko‘ra, o‘zbeklarning *ming, yuz* (juz) urug‘lari Mirzacho‘l orqali Farg‘ona vodiysiga, Toshkent vohasiga va Xo‘jand atroflariga ko‘char ekan, ularning bir qismi Mirzacho‘l vohasida joylashib qolishgan³⁸.

Mirzacho‘l vohasiga iqtisodiy va etnomadaniy jihatdan eng yaqin tarixiy-geografik hududlardan bir Zomin tumani bo‘lib, bu hudud aholisi qadim va o‘rta asrlarda bo‘lgani kabi so‘nggi o‘rta asrlarda ham voha aholisi bilan tig‘iz aloqalarda bo‘lib kelgan. Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi va bu yerlarda mamlakatimizning turli viloyatlaridan ko‘chirilgan aholilarga yangi turar-joylar barpo etilganda Zomin tumanidan ko‘plab aholi Sirdaryo viloyatining deyarli barcha tumanlariga kelib joylashgan va o‘z an‘analarini birmuncha ya‘shi saqlab qolishgan. Bu borada B.To‘ychiboyev va Q.Qashqirli tomonidan 2012 yilda nashr qilingan “Zominning til qomusi” nomli monografiyaga murojaat qilish asqotadi³⁹. S.Qorayev Mirzacho‘l vohasidagi etnotoponimlariga e‘tibor qaratgan⁴⁰. Voha aholisining etnografik xususiyatlariga doir ma‘lumotlar arxeolog olim A.Gritsinaning bir qator nashrlarida o‘rin olgan⁴¹. Ayniqsa, tadqiqotchining Jizzax vohasi va Mirzacho‘ldagi yuz, qarapchi, solin kabi etnonimlarga aloqador yiqqan materiallari o‘zining ancha keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Sovet davri va mustaqillik yillarida Mirzacho‘l vohasining o‘zlashtirilishi, aholi demografiyasi va hokazo masalalarda B.Aminov,

³⁵ // Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии. Выпуск 5 Древность. Средние века. Новое время. Отв. ред. Ш.С.Камолиддин. – Saarbrücken: LAP, 2020. – С. 20.

³⁶ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 222, 229.

³⁷ Тогаев А.Р. Нурота воҳасида этномаданий жараёнлар (XX асрнинг I ярми) / Т.ф.н. ... дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 42.

³⁸ Салимов Т. Этнический состав и расселение населения Нуратинского оазиса. – С. 19-20.

³⁹ Тўйчибоев Б., Қашкирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2012.

⁴⁰ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978; Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари / Масъул. муҳаррир: А.Мухаммаджонов. – Тошкент, 2005. – Б. 122.

⁴¹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент: Фан, 1992.

R.Egamberdiyev, A.Razzoqov, U.Alibekov, Z.Ashirboyeva, O.Komilov, Z.Mahmudov va yana bir qator tadqiqotchilarning ishlarida alohida o‘rin olgan⁴².

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Mirzacho‘l vohasi aholisining o‘zaro ijtimoiy munosabatlari**” deb nomlangan. Ushbu bobning ilk paragrafida “XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr o‘rtalarida Mirzacho‘l vohasida ijtimoiy va madaniy hayot” ko‘rib chiqilgan. Turkiston hududiga ruslarning kelishi arafasida Sirdaryo sohillarida o‘zbek, qirg‘iz va qozoqlarning qishki ovullari mavjud bo‘lgan. Qo‘ng‘irot urug‘i qirg‘izlarining Sirdaryo sohillariga kelib qolishi XVI-XVII asrlarga borib taqaladi. Mirzacho‘ldagi o‘zbek urug‘i boshliqlari qaropchi va parchayuzlar hisoblangan. Mirzacho‘lning ichki qismlarida va ko‘l atroflarida ko‘chmanchi qozoqlar o‘tovlari mavjud bo‘lgan. Aholi yozda chaylalarda, qishda esa yerto‘lalarda istiqomat qilishgan. Ular chorvachilik va qisman lalmi dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. A.I.Maksheevning yozishicha, 1872-yili o‘zbeklarning qaropchi urug‘iga mansub aholi Mirzacho‘lning Erjar, Xalqako‘l, Mayda jing‘il, Qolgansir manzilgohlari va Begavot, Langar, Chaqir, Namingon, Iskandar, Sarmich, Uvoq, Tarnov, Topqoq qishloqlarida yashaganla⁴³. Parchayuz urug‘iga mansub aholi qaropchilar bilan birga Xalqako‘l, Mayda jing‘il, Erjar manzilgohlarida va Xovos qishlog‘i yaqinidagi dashtda Parcha, Oqquvoq, Qizilchang‘il, Mulla bobo qudug‘i nomli manzilgohlarda yashaganlar. Xalqako‘lda ular 21 ta o‘tovda, Mayda jing‘ilda 7 ta o‘tovda istiqomat qilishgan, qishlovni shu yerda qaropchilar bilan birga o‘tkazganlar. Parchayuzlarning uyas urug‘iga tegishli aholi Erjarda jami 27 ta o‘tovda, Parchada 12 ta, Oqquvoqda 15 ta, Qizilchang‘ilda 17 ta, Mulla bobo qudug‘ida 6 ta, Xovos qishlog‘i atrofida 50 ta o‘tovda yashagan. Faqat Sovot qishlog‘ida parchayuzlar doimiy ravishda istiqomat qilganlar. Sovot va Namingon qishloqlarida o‘zbeklar istiqomat qilgan. Xovos oqsoqolligiga Xo‘jaqishloq, Qo‘shkent, Itbuloq, Changovul, Uchturg‘on, Qipchoq, Xovos, Login qishloqlari qaragan. Eng yirik qishloq Xovos bo‘lib, 120 ta xo‘jalikdan iborat bo‘lgan. Mirzacho‘lning Sovot volostida o‘zbek – qaropchilar (yuz urug‘ining yirik bir tarmog‘i) yashagan bo‘lib, ular 7 uruqqa bo‘lingan: turkman, qo‘shnamg‘ali, uyas, parchayuz, achamayli, boyovut, ettiurug‘. Qaropchi qabilasining 7 urug‘i o‘z navbatida bir necha bo‘g‘inlarga bo‘linib ovullarda yashaganlar. Ovullar bir necha o‘n xo‘jalikdan iborat bo‘lgan⁴⁴. Mirzacho‘lda yashagan, yarim ko‘chmanchilik bilan hayot kechirgan o‘zbeklar XIX asrning ikkinchi yarmida o‘troq turmush tarziga o‘ta boshlaganlar. Ko‘proq ko‘chmanchi hayot ustuvorlik qilgan aholi bo‘lgan qozoqlar Erjar volostida yashab, asosan ikki uruqqa bo‘lingan, bular qo‘ng‘irot (qorako‘z) va romadon urug‘lari bo‘lib, qo‘ng‘irot urug‘i 3 bo‘g‘inga bo‘lingan: bultay, xalpe, jetim.

⁴² Аминов Б. К вопросу формированию населения голодной степи за годы советской власти // Научные статьи и тезисы. – М., 1988. – С. 147; Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси // Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: Тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2007. – Б. 17-20; Аширбоева З.Х. XIX аср охири – XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши. Автореферат. т.ф.н. – Тошкент, 2008. – Б. 12-17.

⁴³ Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. – Гулистон, 2011. – Б. 15.

⁴⁴ Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси // Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: Тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2007. – Б. 17-20.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi “XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida Sirdaryo viloyatida ijtimoiy-madaniy jarayonlar” deb nomlangan. XIX asrning so‘nggi choragigacha Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi bahsli hudud bo‘lib, bu yerda asosan chorvador o‘zbek va qozoqlar ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot kechirishgan. Shu bilan birga, vohaning sun‘iy sug‘orishga moslashgan ayrim kichik hududlarida o‘troq aholi yashab, ular asosan o‘zbek va tojiklardan iborat bo‘lgan. 1850-1865-yillar orasida Sirdaryo havzasidagi vohalar – Qo‘qon xonligiga qarashli hududlar Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida katta bir qismi Sirdaryo daryosining o‘rta havzasiga to‘g‘ri keluvchi Mirzacho‘l vohasi ham imperi qo‘l ostiga o‘tadi. XIX asrning so‘nggi o‘nyilliklari – XX asrning ilk choragida Rossiya tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligining bir qismi sifatida bilingan ushbu voha XX asrning ikkinchi choragida ma‘muriy-hududiy jihatdan asosan ikki qismga bo‘linadi. Mirzacho‘l vohasining sezilarli bir qismi – markaziy, shimoli-sharqiy va janubiy hududlari O‘zbekiston SSR tarkibiga, g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy hududlari RSFSR tarkibidagi Qozog‘iston ASSR tarkibiga kiritiladi. 1960-yillarning boshida Sovet hukumati Mirzacho‘l vohasini o‘zlashtirish maqsadida imkon qadar yaxlitlashtirish, jipslashtirish masalasi ko‘tariladi va yangi ma‘muriy-hududiy islohatlar amalga oshiriladi⁴⁵. Sovet davlatining “baynalmilal hududlar” yaratish siyosati eng qizg‘in pallaga kirgan 1970-yillardagi statistik ma‘lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘sha kezlarda Sirdaryo viloyatida o‘zbeklar aholining deyarli yarmini tashkil etgani, ruslar, tojiklar, qozoqlar, tatarlar viloyatdagi birmuncha ko‘psonli millatlar bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz.

**1979-yildagi statistik ma‘lumotlarga ko‘ra Sirdaryo viloyati
aholisining etnik tarkibi (ming kishi hisobida)**

№	O‘zbeklar	Ruslar	Tojiklar	Qozoqlar	Tatarlar	Jami
1	250 081	66 501	32 085	17 722	32 908	447 748

Agar quyidagi 1989-yilgi jadvalda keltirilgan Sirdaryo viloyati aholisi soniga diqqat qiladigan bo‘lsak, viloyat aholisining miqdor jihatdan ancha o‘sganligiga duch kelamiz. Bu masalaga 1979-1989-yilgi statistik ma‘lumotlar asosida yondashib, viloyatdagi turli millatlar va ularning soni solishtiriladigan bo‘lsa, o‘zbeklar, ruslar, tojiklar, qozoqlar salmog‘i ancha oshgani, tatarlarda kam miqdorda o‘zgarish bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu yillar orasida o‘zbeklarning soni keskin darajada ortib, viloyat aholisining katta qismini tashkil eta boshlagani ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, ushbu 10 yil ichida qozoqlar soni keskin ortib, 1979-yilda 17 722 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 1989-yilga kelib ularning soni 71 406 kishiga etgani ko‘zga tashlanadi. Bu davrda tojik viloyatning tojik aholisi ham deyarli bir baravarga ko‘paygani, ulardan keyin salmog‘i ortgan millat sifatida ruslar turganiga guvoh bo‘lamiz.

⁴⁵ Абдунабиев А.Ф. Мирзачўлнинг бугуни, эртаси. – Тошкент, 1964. – Б. 14.

1989-yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra Sirdaryo viloyati aholisining etnik tarkibi (ming kishi hisobida)

№	O'zbek	Rus	Tojik	Qozoq	Tatar	Qrim tatar	Qirg'iz	Koreys	Turk	Jami
1	923 534	88 415	58 947	71 406	33 947	19 016	29 326	16 730	18 656	1 297 949

1980-yilarning o'rtalarida qayta qurish, oshkoralik siyosati natijasida barcha ittifoqdosh respublikalarda "baynalmilchilik siyosatiga" birmuncha putur etib, milliy uyg'onish, turli millatlarning o'z tarixiy vatanlariga qaytish istagi va hokazo kabi masalalar ko'tarila boshlaydi. Bu holat, ayniqsa qrim tatar, mesxeti turk va yana bir asli qator kavkazlik bo'lgan millatlarning o'z vatanlariga ko'chib keta boshlashlarida kuzatiladi. Bu jarayon Sirdaryo viloyati aholisining demografik holatida o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, Sirdaryo viloyatida 20 ming kishi atrofida bo'lgan qrim tatarlar yoppasiga Qrimga ko'chishlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. 1990-yillardagi o'zbek va mesxeti turklar orasida Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatida kelib chiqqan nizolar Sirdaryo viloyati demografiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ular viloyatda qariyb 20 ming kishiga yaqin bir salmoqqa ega millat sifatida o'zlarining bir qator aholi maskanlarini barpo qilishgan va viloyat aholisining bir qismiga aylangan edilar. 1990-yillar boshida ularning katta bir qismi Rossiya, Qozog'iston va boshqa hududlarga ko'chib ketishlari natijasida 2000-yilga kelib Sirdaryo viloyatidagi mesxeti turklarining soni 5 mingga tushib qoldi. Shunga o'xshash holat qrim tatarlarda ham kuzatilib, quyidagi 2000-yilga tegishli statistik jadvalda ularning soni 4.4 ming kishi deb ko'rsatilishida o'z ifodasiga ega.

2010-yildagi statistik ma'lumotlarda Sirdaryo viloyati aholisi soni va etnik tarkibi shahar va tumanlar kesimida quyidagi berilgan⁴⁶:

Наименование городов и районов	Численность населения всего (тыс.чел)	Распределения численности населения по национальностям												
		Узбеки	Таджики	Русские	Кавкази	Киргизы	Татары	Азербайжанцы	Украинцы	Армяне	Корейцы	Туркмены	Немцы	Прочие
Всего по области	714,4	544,5	65,8	26,4	15,2	14,7	7,2	2,9	1,2	1,0	6,9	0,6	0,2	27,8
г. Гулистан	77,4	56,2	4,1	7,6	1,0	0,5	1,7	0,6	0,3	0,3	2,2	0,1	0,1	2,7
г. Ширин	16,6	13,1	0,7	1,5	0	0,1	0,5	0	0	0	0,2	0	0	0,5
г. Янгйер	32,2	18,3	6,8	3,4	0	0,1	0,5	0,2	0,1	0,2	0,2	0	0,1	2,3
Акалтынский район	51,7	40,9	1,8	0,9	3,5	1	0,3	0	0,1	0	0,3	0	0	2,9
Баяутский район	107,8	92,6	9,5	0,9	0,1	0,3	0,5	0,2	0	0	0,1	0,1	0	3,5
Сайхунабадский район	64,9	44,4	10,2	0,5	5	0,3	0,6	0,1	0,1	0	0,4	0,1	0	3,2
Гулистанский район	59,0	51,1	3,1	0,7	0,4	0,4	0,5	0,1	0,1	0	0,4	0,1	0	2,1
Сардобский район	55,8	40,9	1,7	1,0	0,4	9,9	0,3	0,1	0,1	0	0,2	0	0	1,2
Мирзаабдский район	59,6	55,2	1,7	0,5	0,4	0,5	0,4	0	0	0	0,2	0,1	0	0,6
Сырдарынский район	108,8	72,1	15,0	5,4	3,9	0,3	1,2	1,4	0,3	0,3	2,2	0,1	0	6,6
Хавастский район	80,6	59,7	11,2	4,0	0,5	1,3	0,7	0,2	0,1	0,2	0,5	0	0	2,2

⁴⁶ ЎЗР Давлат статистика кўмитаси. Сирдарё вилояти статистика бошқармаси. Демография ва Меҳнат бўлими. 10-07/3*А. 2010.

2010-yildagi Sirdaryo viloyati aholi soni va uning etnik tarkibga qarab o'zgarishini 2011-yildagi statistik ma'lumotlarga qarab tahlil qiladigan bo'lsak, viloyat ko'lamida o'zbek, tojik, qirg'iz va koreyslarning sonida o'sish kuzatilgani, rus, qozoq, ukrain, tatar va boshqa bir qator kam sonli millatlar sonida esa pasayishi bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, ushbu jadvallarda o'rin olgan turkman, ozarbayjon, arman va nemislar sonida o'zgarish bo'lmaganligi ko'rinadi.

Bugungi kunda, ya'ni 2020-yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra Sirdaryo viloyati O'zbekistonning aholisi eng kam viloyati bo'lib, bu yer umumiy aholisining soni 846 260 kishini tashkil qiladi. Aholining ko'pchiligi qishloqlarda yashab, 57,2% ni shahar aholisi 42,8% ni tashkil etgan. Shuningdek, viloyat aholisining katta qismi o'zbeklar iborat bo'lib, 668 762 kishini tashkil etgan⁴⁷.

XX asrda O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekiston hududida amalga oshirilgan turli islohatlarning deyarli barchasi mintaqaning Mirzacho'l vohasida yanada yaqqolroq o'z ifodasini topadi. Bungacha o'zbek xonliklari davrida nisbatan kam o'zlashtirilgan va aholisi birmuncha tarqoq yashagan vohada yoppasiga o'zlashtirish ishlari boshlab yuboriladi. Sobiq ittifoq davrida bu hudud aholi migratsiyasi va urbanizatsiya jarayonlarida o'ziga xos "tajriba maydoni"ga aylanadi. Asosiy maqsadi rus tilida so'zlashuvchi "sovet kishisini" yaratish bo'lgan va bu maqsadni "internatsionalizm" (baynalmilalchilik), turli xalqlar qardoshligi g'oyasi ostida amalga oshirishga intilgan kommunistik hukumat Mirzacho'l da yangi aholi maskanlari tashkil etib, ittifoqning turli hududlaridan aholini keltirib joylashtira boshlaydi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Sovet hukumati davrida Mirzacho'l vohasidagi rayon (tuman)lar, kolxoz va sovxozlar asosan kommunistik partiya etakchilarining ism-familiyalari bilan nomlanadi. Bu ham sovet hukumatining "yagona sovet xalqi"ni yaratishda qo'llagan usullaridan biri edi. Bu ishni amalga oshirishda Markazdagilar turli shiorlarni o'rta tashlab, ittifoqning markaziy qismlaridan slavyanlar (rus, belorus, ukrainlar)ni, Volgabo'yidan tatarlarni, Kavkazdan ozarbayjon, armanilar va boshqalarni jalb qiladi. Shu bilan birga, mahalliy hukumat ham imkon qadar mahalliy aholini Mirzacho'l dagi yangi aholi maskanlari siyosatini olib borib, ularning son jihatdan oshishini ta'minlaydilar. Qisqasi, Sirdaryo viloyati aholisi asosan O'zbekistonning turli viloyatlaridan ko'chirib keltirilgan oilalar hisobiga yil sayin ko'payib borgan. 1990-yillarning boshlarida Sovet ittifoqining parchalanishi natijasida viloyatda yashovchi rus tilli aholining bir qismi o'zlarining tarixiy vatanlariga ko'chib ketishlari natijasida viloyat aholisi sonida birmuncha pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi o'nyilliklarda aholining son jihatdan yana ortgani ko'zga tashlanadi.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi "*Mirzacho'l vohasi aholisining ijtimoiy munosabatlari*" mavzusiga bag'ishlangan. O'rta Osiyo xalqlari, xususan, mintaqaning turkiy xalqlari nafaqat tili va tarixi bir, balki kundalik turmush tarzi, maishiy hayoti, urf-odatlar, umuman olganda, etnomadaniyatida umumiylikka ega. Buni Mirzacho'l vohasi aholisi, ayniqsa, vohaning o'zbek, qozoq va qirg'iz aholisi

⁴⁷ Egamkulov Kh.E. Sirdaryo viloyati aholisining milliy tarkibi uning geokriminologiya holatiga ta'siri // Электронное научно-практическое периодическое издания «Экономика и социум». Вып. 1 (80) часть (январь, 2021). <http://www.iupr.ru>. 2011.

orasida mavjud oila va qarindosh-urug‘chilik atamaları ham tasdiqlaydi. Voha aholisi orasida qarindosh-urug‘chilik atamalarining ayrim o‘ziga xosliklari ham borligiga duch kelamiz. Bunday holat vohaning qozoq va qirg‘iz aholisi tiliga ham xosdir. Ulardan ayrim misollar keltiramiz: **bo‘la** – opa-singillarning bolalari, xolavachcha⁴⁸. Qirg‘iz, qozoq, no‘g‘oy va hokazo kabi turkiy tillarning qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi xalqlar⁴⁹ kabi o‘zbek qipchoqchasida “bo‘la” so‘zi keng tarqalgan qarindosh-urug‘chilik atamasidir⁵⁰. Shuningdek, nikoh yo‘li bilan qon-qarindosh tutinganda ishlatiladigan so‘zlar tashkil etib, bu holat ham o‘zbek, hakm qozoq va qirg‘iz aholi uchun xosdir. Ular orasida “kuyov” va “kelin” qarindoshlari bilan bog‘liq so‘zlar keng tarqalgan. Qadimgi turkchada quyidagicha uchragan: “**Yazna** – yazna, katta qiz qardosh (opa)ning eri”⁵¹. “**Yanğa** – yanga. U katta akaning xotini” mazmunidagi so‘zlar O‘rta Osiyo turkiylarida, xususan, mamlakatimiz hududida deyarli o‘zgarmasdan saqlanib qolgan. Jumladan, o‘zbek adabiy tili va shevalarida “yezna”, “yazna” – “pochcha” ma’nosida bo‘lib, uning “yezda”, “jezda”, “jezza” variantlari ham bor⁵². Onado‘li turklari, ozarbayjon, qozoq, no‘g‘oy tillarida bu so‘z keng yoyilib, negizi qadimgi turkchaga borib taqaladi⁵³. Mahmud Koshg‘ariy bu so‘z haqida “**Baldo‘z** – xotinning singlisi. Erining singlisiga “baldo‘z” deyilmaydi, “singil” deyiladi”⁵⁴ deb yozadi. Baldo‘z – qaynsingil (erkak uchun), xotinning singlisi. O‘zbek tilining asosan o‘g‘uz va qipchoq shevalarida qo‘llaniladi⁵⁵. Mirzacho‘lga Zomindan ko‘chgan aholi orasida “baldiz” so‘zi uchrab, qadimgi turkchadagi so‘z bilan bir xil ma’noda ishlatiladi. Zominda esa ushbu so‘z 2 ta ma’noda: erkak uchun ayolning singlisi yoki yaqin qiz qarindoshi uchun qo‘llaniladi⁵⁶.

Dissertatsiyaning “**Mirzacho‘l vohasi aholisining moddiy madaniyati va an‘analar tarixi**” deb nomlangan uchinchi bobining ilk paragrafida “*Mirzacho‘l vohasi aholisining joylashuvi va madaniy xususiyatlari*” mavzusi ko‘rib chiqiladi. Mirzacho‘l vohasi o‘zbek, qozoq va qirg‘iz aholisi tilida, balki Markaziy Osiyoning ko‘plab hududlarida, shu jumladan, o‘zbek tili va shevalarida birmuncha ko‘p uchrashi misolida o‘z tasdig‘ini topadi⁵⁷. Ular orasida “uy”, “chodir”, “ko‘chma uy” ma’nosida “o‘tov” qadimgi turkiy xalqlarda o‘tov *otag‘* “o‘tag‘” deb atalib, uning kundalik hayotdagi o‘rni katta bo‘lgan⁵⁸. **O‘tov** – 1. Kuyov-kelin uchun yoki boshqa maqsadlar uchun tikilgan yangi qoraui. 2. Qoziq, keraga, uvuq,

⁴⁸ Ўзбек халқ шевалари луғати. – Б. 337.

⁴⁹ Киргизско-русский словарь. Составитель К.К.Юдахин. Книга 1. А-К. – С. 152; Бекетаев К. Казахско-русский словарь. – С. 102; Керейттов Р.Х. Ногайцы. Особенности этнической истории. – С. 357.

⁵⁰ Ўзбек халқ шевалари луғати. – Б. 337; Нафасов Т. Қашқадарё халқ сўзлари луғати. – Б. 50; Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил комуси. – Б. 199.

⁵¹ Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони / Тарж. ва нашрга тайёрл. С.М.Муталлибов. 3- том. – Б. 42.

⁵² Ўзбек халқ шевалари луғати. – Б. 341-343.

⁵³ Керейттов Р.Х. Ногайцы. Особенности этнической истории и бытовой культуры. – С. 290, 366.

⁵⁴ Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони / Тарж. ва нашрга тайёрл. С.М.Муталлибов. 1-том. – Б. 426.

⁵⁵ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент, 1961. – Б. 25.

⁵⁶ Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил комуси. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 199.

⁵⁷ Кармышева Б.Х. Основные виды переносного жилища узбеков // Кочевое жилище народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1990. – С. 50-78.

⁵⁸ Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони / Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. 3-том. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 226.

tuynuk kabi cho‘plarning qalamasi ustiga kigiz yopilib, bog‘ichlar bilan bog‘lab mustahkamlangan ko‘chma uy, qoraui⁵⁹.

Mirzacho‘ldagi o‘zbek, qozoq va qirg‘iz aholi orasida o‘tov (qora uy) bilan bog‘liq quyidagicha atamalar saqlangan “**keraga** – o‘tovning chetanga o‘xshatib ishlangan devori” ma’nosidadir⁶⁰. Ko‘chmanchi o‘zbeklarda, xususan, qo‘ng‘irotlarda keraga bilan bog‘liq “keragabov”, ya’ni “keragabog‘”, “uvuqbov” atamalari uchrashi diqqatga sazovordir⁶¹. “Devonu lug‘ati-t-turk”da “*Keragu – chodir. Turkmanlar nazdida*”⁶². **Uvuq / uq** – o‘tovning muhim bir qismi – asosiy tayoq devor va o‘tov yuqorisidagi “chang‘aroq”ni birlashtirib turadigan uzun tayoq – xodalarga nisbatat qo‘llanilgan. Zominliklarda “*uviq* – o‘tovning kigiz tagidan qo‘yiladigan tayoqlari” ma’nosida saqlangan⁶³. **Siruq** – Mahmud Koshg‘ariy “*siruq – chodirning ustuni*” deb yozgan⁶⁴. Zominliklar shevasida *siriqtay* – novcha, kelishgan (odam) ma’nosida ishlatilsa⁶⁵ ma’nolarida qo‘llaniladi. **Chang‘aroq** – “o‘tovning ustki qismidagi tuynuk chambaragi” deb qayd etilgan⁶⁶. Bu so‘z zominliklarda shunga yaqinroq, ya’ni “*changgaraq* – o‘tov tuynugi” ma’nosidadir⁶⁷. **Tuynuk** – eski tipdagi mahalliy uy, binolarning devori yoki tepasidan yorug‘lik, havo kirib turishi yoki boshqa maqsadlar uchun qoldirilgan to‘rtburchak yoki doiraviy teshik” deb ochiqlanadi⁶⁸.

O‘tovning kerakli qismlari bilan bog‘liq turkiy tillarda, shu jumladan, o‘zbekchada quyidagi so‘zlar saqlangan: **qanot** (qanot (qush qanoti), o‘tovning qo‘shimcha qismlaridan biri); **arqon** – o‘tov va olachuq tayyorlashda ko‘p ishlatiladigan yug‘on ip⁶⁹; **chiy / chig‘** – qamishdan yoki savag‘ich poyasidan ip yoki sim bilan qatorlab bog‘lab to‘qilgan qurilish materiali⁷⁰; **uzuk** – o‘tov chang‘arog‘i bilan “tuvurliq” orasidagi tasma; **uzukbov** – Uzukni keragaga berkitib bog‘lash uchun uzukning quyi, yuqori, yon tomonlariga tikib bog‘lanadigan to‘qima tasma; **tuvurliq** – Qoraui “erganagi” (eshigi) bilan “uvuq” (xoda) bog‘langan qismidan keraganing “chiy” yoyiladigan qismigacha yopiladigan to‘rt bo‘lak kigiz (qozoqchada tuo‘rlo‘q, no‘g‘oychada *turluq*)⁷¹; **tuvuq** – Keraga bilan “uvuq”ning birlashtirilib bog‘langan qismi; **ko‘zanak** – Qoraui keragalarini tik qilganda cho‘plari orasida hosil bo‘lgan teshik; **to‘r** – uyning, o‘tovning eng yuqorisidagi maxsus o‘rin, ko‘pincha uyning erkak a‘zosi, yoshi ulug‘ kishilar va mehmonlar o‘tqiziladigan joy⁷²; **irga** – uyning, hovlining

⁵⁹ Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б. 400.

⁶⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. К ҳарфи. – Тошкент, 2006. – Б. 353.

⁶¹ Ўзбек халқ шевалари луғати. – Б. 144.

⁶² Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони / Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. 1-том. – Б. 418.

⁶³ Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Б. 377.

⁶⁴ Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони / Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. 1-том. – Б. 362.

⁶⁵ Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 374.

⁶⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. Ч ҳарфи. – Тошкент, 2008. – Б. 357.

⁶⁷ Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Б. 378.

⁶⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. Т ҳарфи. – Тошкент, 2008. – Б. 184.

⁶⁹ Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони / Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. 1-том. – Б. 97.

⁷⁰ Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони / Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. 3-том. – Б. 141.

⁷¹ Керейтов Р.Х. Особенности этнической истории и бытовой культуры. – Ставрополь, 2009. – С. 204.

⁷² Кошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони / Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. 3-том. – Б. 240.

burchagi (Zomin)⁷³; **erganak** – o‘tov va qo‘tonlar eshigi. Zominliklarda “*Qoruy (qorauy)ning erganagi jaqshi jaylanipti* – Qorauy (o‘tov)ning eshigi yaxshi joylashibdi” mazmunida so‘zlar uchrab turadi⁷⁴; **o‘choq** – uy va o‘tovda ovqat pishirish va isitish maqsadida ishlatilgan qurilma va b.

Olachuq – o‘zbek tili izohli lug‘atida “Olachiq – kapa, chayla” deb ochiqlanadi⁷⁵. Turkiy xalqlarning ko‘pchiligida “alachuq”, “alachiq”, “alashiq”, “lachiq” shakllarida uchraydigan ushbu so‘z ko‘pincha “o‘tov”dan kichikroq, yasalish yo‘sini va bajaradigan vazifasiga ko‘ra birmuncha farqli turarjoy qurilmasiga nisbatan ishlatiladi. **Chatma** – kapa, chayla. Bir qator o‘zbek shevalarida “chatma”, “chatmoq” so‘zlari “chatilmoq”, “bir-birika aralashib ketmoq”, “aralashmoq” ma‘nolarida⁷⁶, “chalakam-chatti” so‘zi esa “chala-chulpa”, “qalangan” ma‘nosida ishlatiladigan so‘z ekanidan kelib chiqilsa, “chatma” so‘zi ham “qamishdan yoki sho-shabbadan qalanib yasalgan yachayla, kapa” degan so‘zdan kelib chiqqan. Mirzacho‘l vohasining qamishzor joylari ko‘pligi va bu hududda etishtirilgan qovun-tarvuz kabi poliz mahsulotlarini sotish uchun vaqtinchalik turarjoylarga ehtiyoj ko‘p bo‘lganligidan vohada qamishdan yasalgan boshpana “**chayla**” deb atalgan.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi “*XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisining moddiy madaniyatining o‘ziga xosliklari*” deb nomlangan. Mirzacho‘l vohasi qishloq aholisining yilqichilik bog‘liq ko‘plab an‘analari – ot-ulovlardan unumli foydalanish, zotdor ot etishtirish, otlarni uloq-ko‘pkariga tayyorlash, otni oziqlantirish va ot minishda ishlatiladigan anjomlarni yasash kabi tarixiy malakalar haligacha muayyan darajada saqlanib qolganligi diqqatga sazovordir: **ayil** – egarning usti bilan otning qornidan aylantirib bog‘lanadigan to‘qali qayish; **bellik** – jazliqning ostiga qo‘yiladigan ot abzali; **dikkak** – **dikdikka**, **dig-diga**. Otning ustiga tashlanadigan bezakli, popukli yopiq; **jul**; **jazliq** – Egar qoptoli ostiga qo‘yiladigan bir juft yumshoq ot abzali; **jahaldirik** – jazliqning bir turi; **jilov** – yuganning charm tizgini; **ko‘pchik** – Egar ostiga qo‘yiladigan yostiq; **no‘xta** – Ot-ulovni bog‘lash, etaklash va haydash uchun boshiga solinadigan ot abzali; **og‘izliq** – suvliq; **pushtan** – egarning ot qornidan aylantirib o‘tqizib bog‘lab qo‘yiladigan tasmasi; **suvluq** – yuganning ot og‘ziga solinadigan metall qism; **tepkini** – egardan uzangigacha bo‘lgan charm ip, bog‘; **tarolg‘i** – uzangi bog‘i; **terlik** – otning terini to‘qimga o‘tkazmaslik uchun egar tagidan qo‘yiladigan qalin namat parcha; **tizgin** – jilov. Ot, eshak va b. hayvonlarni bog‘lash yoki qantarib qo‘yish uchun xizmat qiladigan, uchi suvliqqa yoki boshvoqqa biriktirib qo‘yiladigan tasma yoki chizimcha; **to‘qim** – jazliq yoki egar ostiga qo‘yiladigan, odatda namatdan qilinadigan ot-ulov abzali; **to‘qa** – kamar, tasma va sh.k ning uchini o‘tkazib taqiladigan qismi; **o‘mildirik** – otning to‘shiga taqiladigan metall taqinchoq⁷⁷; **uzangi** – egarning ikki tomoniga qayish bilan bog‘lab, osib qo‘yiladigan, otga minish

⁷³ Тўйчибоев Б., Қашкирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 392.

⁷⁴ Тўйчибоев Б., Қашкирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Б. 381.

⁷⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. О ҳарфи. – Тошкент, 2006. – Б. 107.

⁷⁶ Нафасов Т. Қашқадарё халқ сўзлари луғати. – Б. 340.

⁷⁷ Эргаш Жуманбулбул ўғли. Таржимаи ҳол Равшан / Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Нашрга тайёрловчи Х. Зариф. – Тошкент, 1971. – Б. 64, 78, 372.

va egarda oyoqlarni tirab o'tirish uchun xizmat qiladigan, metalldan yasalgan ot abzali; **uzma** – quyushqonga taqiladigan metall taqinchoq, bezak; **qanjig'a, qanjirg'a** – yuk va boshqa narsalarni bog'lash uchun egar orqasiga bog'langan tasma, bog'ich yoki ilgak; **qoptol** – yon tomon. Yonidan yaqinlashmoq, yaqinlashmoq, yon tomonidan juda yaqin masofada bo'lmoq⁷⁸; **qosh** – ba'zi narsalarning turtib chiqqan joyi, ot egarining qoshi; **quyushqon** – egarning oldinga siljimasligi uchun ot yoki eshakning dumi ostidan aylantirib, egarga biriktiriladigan, ko'pincha turli bezaklar qadaladigan qayish; **chilvir** – ingichka pishiq arqon, arg'amchi; chizimcha; **chirgi** – terlik, yopiq; **yugan** – ot, eshak va boshqa hayvonlarni boshqarish uchun ular boshiga solinadigan suvliq, tizgin va qayish tasmalaridan yasalgan abzal. Ot abzallarining katta qismi Mirzacho'l vohasining bir qismi yoki unga tutash bo'lgan Zomin tumani aholisi orasida saqlanib qolgan. Zominliklar shevasida saqlanib qolgan ot anjomlari va ot turlari bilan bog'liq quyidagicha: ag'at “oq ot”, ayg'ir, aqta, baytal, bo'z “rangi oq bilan ko'kning orasidagi yilqi”, burul “olachipor bo'yinli yilqi”, biya, do'najin “to'rt yoshli baytal”, do'nan “to'rt yoshli ot”, jaydaq “yaydoq ot”, jaldar “yoldor ot”, jo'rg'a “yurg'a ot”, jo'rtoqi “yurtoqi ot”, jiyron, juyruk “yugurik ot”, kaltatoy “bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan yilqi”, kuzama “olti oylikdan bir yoshgacha bo'lgan yilqi bolasi”, terlik, cho'bir “qirchang'i ot”, chavkar “badanida taram-tam xollari, yulduzchalari bor targ'il ot”, chibar “chipor ot”, qisrak “hali qochmagan urg'ochi yilqi” va hokazo⁷⁹.

Ushbu bobning so'nggi paragrafi “XX-XXI asr boshlarida Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi va moddiy madaniyati” deb nomlangan. XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Sirdaryo viloyati va unga qo'shni hududlarga ruslar va yana bir qator rus tilli xalqlarning ko'chirib keltirilishi, XX asrning ikkinchi yarmida esa cho'lning o'zlashtirilishi va yangi aholi maskanlarining barpo etilishi natijasida Mirzacho'l aholisi ham son jihatidan, ham etnik tarkib jihatidan ko'paya borgan. Ayniqsa, yangi tashkil etilgan aholi maskanlariga asosan Farg'ona vodiysi, Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridan cho'lquvarlarning ko'chirib keltirilishi natijasida bu yerda o'nlab jamoa xo'jaliklari (kolxoz), sovet xo'jaliklari (sovxoz) va qishloqlar paydo bo'lgan. Masalaga Mirzacho'l aholisining ham qadimdan yashab kelayotgan mahalliy aholisi va XX asrning o'rtalaridan kelib joylashgan o'zbek aholi taom madaniyati misolida qarab chiqilsa o'ziga xos rang-baranglik borligi seziladi. Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridan ko'chirilgan aholi maskanlari aholisining uy-ruzg'or tutishlari, kundalik turmush tarzida umumiylik bo'lganidek, taom pishirish madaniyatida ham birmuncha o'xshashliklar borligi ko'zga tashlanadi. Xususan, ularda xamir ovqat turlari, sut mahsulotlarining nomlanishi va boshqalarda anchagina o'xshashliklar bor⁸⁰: **Keskan osh** – ugra. Suzma yoki qatiqqa tilim-tilim qilib kesilgan xamir bo'laklari qo'shib tayyorlanib, murch, to'g'ralgan xom piyoz, ivitilgan no'xot qo'shib yeyiladigan ovqat; **tutmoch** – ugraning bir turi. Bu ovaqt Mirzacho'lga ko'chgan farg'onalik aholi vakillari orasida birmuncha saqlanib qolgan. Ushbu ovqat turi

⁷⁸ Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б. 423.

⁷⁹ Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 216-237.

⁸⁰ Дала материаллари. Сирдарё вилояти Мирзаобод тумани Ёшлар қишлоғи, Абдикул Жўраев.

qadimgi turklarlarda ancha keng tarqalgan xamirli yemaklardan biri hisoblangan⁸¹; *yupqa, jupqa* – yumaloq qilib kesilgan yupqa xamir, lavashning bir turi. O‘lchami va yasalishi ham lavash bilan deyarli bir xil; *qatlama*. “Yog‘li xamirdan qatlamlab yog‘ surib, yupqa yoyib yog‘da pishirilgan non, ya’ni qatlama”. Bu taom ko‘pincha to‘y-hashamlarda dasturxoniga tortiladi; *chalpak* – qatlamaning bir turi. Sh.Rahmatullayev bu taom turiga shunday izoh bergan: “Chalpak xamirni yupqa yoyib, yog‘da pishiriladigan ovqat⁸²; *umoch* – xamirli ovqat turi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “*Umoch* – uvalangan xamir solib pishirilgan suyuq osh” deb ta’riflanadi⁸³; *kulchatoy* – shilpildoq. Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarining ko‘pgina qishloqlarida sevib iste’mol qilinadigan xamirli ovqat turi⁸⁴.

Bir qator tadqiqotchilarning yozishicha, pishirilgan go’shtning qaysi qismi “hurmatli” yoki “faxrli” hisoblanishi borasida turkiy xalqlarda umumiy, shuningdek, birmuncha farqli yondashuvlar ham mavjud bo‘lgan. Masalan, XX asr boshlarida yarimo‘troq va yarimko‘chmanchi o‘zbeklarda, ayniqsa, qipchoq va qarluqlarda qo‘yning orqa oyoq qismidagi ilikli suyagi (“to‘qmoloq”) hamda to‘shi va go’shtli qovurg‘asi eng “faxrli” qismlari hisoblangan. Ko‘pchilik qirg‘iz urug‘larida esa qo‘yning dumg‘aza (ucha)si eng “faxrli” qismi sanalgan⁸⁵. Bunga o‘xshash urf-odatlar Mirzacho‘l vohasining o‘zbek aholisida ham birmuncha saqlanib qolgan.

XULOSA

XX-XXI asr boshlarida Mirzacho‘l vohasi aholisining etnik tarkibi va moddiy madaniyati mavzusini tahlil qilish orqali quyidagicha xulosalarga kelindi:

Mirzacho‘l – O‘rta Osiyoning nisbatan markaziy qismida joy olib, bir qismi qumliklardan iborat cho‘l hududlar, bir qismi esa yaylovlarga ega dashtlardan tashkil topgan voha XIX asrning so‘nggi choragigacha Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi bahsli hudud bo‘lib, bu erda asosan chorvador o‘zbek va qozoqlar ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot kechirishgan. Vohaning sun‘iy sug‘orishga moslashgan ayrim kichik hududlarida o‘troq aholi yashab, ular asosan o‘zbek va tojiklardan iborat bo‘lgan. 1850-1865-yillar orasida Sirdaryo havzasidagi Oqmasjid (Qizil-O‘rda), Turkiston (Yassi), Toshkent vohasi kabi Qo‘qon xonligiga qarashli bo‘lgan Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida katta bir qismi Sirdaryo daryosining o‘rta havzasiga to‘g‘ri keluvchi Mirzacho‘l vohasi ham imperiya tarkibiga kiritiladi.

XIX asrning so‘nggi o‘nyilliklari – XX asrning ilk choragida Rossiya tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligining bir qismi sifatida bilangan ushbu voha XX asrning ikkinchi choragida ma’muriy-hududiy jihatdan asosan ikki

⁸¹ Кошғарий Махмуд. Туркий сўзлар девони / Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. 1-том. – Б. 422; Абдулахадов Н., Тошпўлатов И., Носирова У., Журабаев У. Махмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. – Б. 27.

⁸² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 409.

⁸³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. У ҳарфи. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, 2008. – Б. 284.

⁸⁴ Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 208.

⁸⁵ Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Фергана, 1990. – С. 107.

qismga bo'linadi. Mirzacho'l vohasining sezilarli bir qismi – markaziy, shimoli-sharqiy va janubiy hududlari O'zbekiston SSR tarkibiga, g'arbiy va shimoli-g'arbiy hududlari RSFSR tarkibidagi Qozog'iston ASSR tarkibidan joy oladi. 1960-yillarning boshida Sovet hukumati Mirzacho'l vohasini o'zlashtirishni qulaylashtirish maqsadida imkon qadar yaxlitlashtirish, jipslashtirish masalasi ko'tariladi. Qardosh qozoq xalqining O'zbekistonga bir qism erini berishi bo'yicha kelishuvga erishilgach, shunday yagona qo'riq oblast (viloyat) tuziladi va ma'muriy jihatdan O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Sirdaryo viloyati tuziladi va u Mirzacho'l vohasi va Forish dashtining bir qismini o'z ichiga oladi. Sirdaryo viloyatning qishloq xo'jaligi maydoni 1 million 930 ming gektarga yaqin bo'lib, o'sha yillarda 300 ming gektari sug'orilgan, lalmikor erlari 260 ming gektar bo'lib, ma'muriy jihatdan 63 kolxoz, 44 ta sovxoz tashkil etilgan. O'sha paytda viloyatda 630 ming kishi yashashi qayd etilgan.

Mirzacho'l vohasida XX asr boshlarigacha asosan o'zbeklar va qozoqlar mahalliy aholi hisoblanib, ularning bir qismi ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi chorvador aholi, bir qismi esa o'troq dehqon aholidan iborat bo'lgan. Xususan, Begovot, Qo'shtamg'ali, Uyas, Qirqtol, Boyovut va h.k. kishloqlarda maalliy aholi istiqomat qilgan. Sirdaryo viloyati aholisi etnik tarkibi jihatidan ko'p millatli hisoblana boshlagan davri XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelib, viloyatda o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq, rus, tatar, koreys va bir necha o'nlab etnik guruhlar majmuasini tashkil etgan. Geografik muxiti Mirzacho'lning janubiy-sharqiy qismini tashkil etgan, shimoliy tomondan qozoqlar, janubiy tomondan tojiklar bilan qo'shnichilik chegarasida o'rin olgan bo'lib, Mirzacho'lni o'zlashtirishda hamkorlik faoliyatini olib borishgan.

Sirdaryo viloyati aholisi asosan O'zbekistonning turli viloyatlaridan ko'chirib keltirilgan oilalar hisobiga yil sayin ko'payib boradi. 1990-yillarning boshlarida Sovet ittifoqining parchalanishi natijasida viloyatda yashovchi rus tilli aholining bir qismi o'zlarining tarixiy vatanlariga ko'chib ketishlari natijasida Sirdaryo viloyati aholisi sonida birmuncha pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi o'nyilliklarda aholining son jihatdan yana ortishi ko'zga tashlanadi.

Mirzacho'l vohasida yangi tashkil etilgan aholi maskanlariga asosan Farg'ona vodiysi, Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridan cho'lquvarlarning ko'chirib keltirilishi natijasida bu erda o'nlab jamoa xo'jaliklari (kolxoz), sovet xo'jaliklari (sovxoz) va qishloqlar paydo bo'lgan. Mirzacho'ldagi yangi aholi maskanlarida mamlakatimizning turli hududlaridan keltirilgan aholi ko'p hollarda aralash mahallalar sifatida yashay boshlagan bo'lsalar-da, ayrim hollarda har bir viloyat yoki tuman aholisi imkon qadar o'z yurtdoshlari bilan alohida mahalla yoki qo'shni bo'lib yashashga intilishgan. O'tgan qariyb yarim asrlik vaqt mobaynida turli viloyatlardan ko'chirib keltirilgan aholi orasida ko'p jihatdan umumiylik kuzatilsa-da, ayrim urf-odatlarida, marosim va tadbirlarda, uy-ruzg'or tutishda birmuncha o'ziga xosliklar ham saqlanib qolganligi ko'zga tashlanadi. Bu holat, ayniqsa, Farg'ona vodiysi va mamlakatimiz vohalaridan ko'chirilgan aholi birmuncha sezilib turadi. Masalaga Mirzacho'l aholisining ham qadimdan yashab kelayotgan mahalliy aholisi va XX asrning o'rtalaridan kelib joylashgan o'zbek

aholi taom madaniyati misolida qarab chiqilsa o'ziga xos rang-baranglik borligi seziladi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, voha aholisining milliy taomlari, umuman olganda, ovqatlanish madaniyati O'rta Osiyo xalqlari, xususan, boshqa hududlarda yashovchi o'zbeklarnikidan katta farq qilmasa-da, ayrim o'ziga xosliklari borligi ko'rinadi. Shuningdek, Mirzacho'lga XX asrning turli yillarida Farg'ona vodiysi, Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridan ko'chirilgan aholining har birida birmuncha farqli taomlar bugungacha saqlanib kelayotir.

Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridan ko'chirilgan aholi maskanlari aholisining uy-ruzg'or tutishlari, kundalik turmush tarzida umumiylik bo'lganidek, taom pishirish madaniyatida ham birmuncha o'xshashliklar borligi ko'zga tashlanadi. Xususan, ularda ovqat turlari, sut mahsulotlarining nomlanishi va boshqalarda anchagina o'xshashliklar bor. Jumladan, Mirzacho'lning mahalliy aholisi va vodiy o'zbeklari sut mahsulotlaridan biri – qatiqning suvi suzdirib olinib, tuz qo'shib tayyorlangan turi “suzma” deb yuritilsa, vohalardan ko'chgan aholi ushbu mahsulotni “chakki” deb ataydilar. Shu bilan birga, qatiq yoki suzmaga suv va tuz qo'shib tayyorlangan suyuq salqin ichimlik vodiydan ko'chgan o'zbek aholisi tomonidan “ayron” deb atalsa, vohaliklar uni “chalop” deb nomlaydilar. Shuningdek, ushbu salqin ichimlikning tayyorlanishi vodiy va voha aholisida birmuncha farqlanib, birinchisi uni asosan qatiqdan tayyorlasa, vohaliklar, ayniqsa, Qashqadaryodan ko'chirilgan aholi uni “chakki”, ya'ni suzmadan tayyorlashadi. Mirzacho'l vohasining asosan o'zbek, qozoq va qirg'iz, qisman esa tojik aholisi orasidagi taom nomlari va ularning tayyorlanish usullarida umumiylik ko'zga tashlanib, ularning katta qismi qadimgi turkiy an'analarning davomchisi ekaning eguliklar nomida ham ko'rinadi: *keskan osh* (ugra), *tutmoch* (ugra turi), *yupqa / jupqa*, *qatlama*, *chalpak*, *umoch*, *kulchatoy* (shilpildoq), *ayron / chalop*, *suzma / chakki* va h.k.

Qisqasi, bu davrda Mirzacho'l vohasida mamlakatimizning turli viloyat va tumanlari hamda qo'shni respublikalar aholisi xos an'analari o'zaro qorishuvidan o'ziga xos voha madaniyati shakllangani va borgan sari rivojlanib borayotgani diqqatga sazovordir.

Dissertatsiyada qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar quyidagicha **amaliy ahamiyatga** ega:

O'zbekiston tarixining XX-XXI asrlar bosqichini, ayniqsa, o'zbek xalqi etnografiyasini yozishda qo'shimcha material sifatida foydalanish mumkin;

Qadimgi Ustrushona viloyati tarixi va etnografik xususiyatlarini yoritayotganda murojaat qilish maqsadga muvofiq;

Jizzax va Sirdaryo viloyatlari tarixini yoritishda, shuningdek, ushbu viloyatlardagi o'lkashunoslik muzeylarini tarixiy va etnografik materiallar bilan ta'minlash va boyitishda foydalanish mumkin;

Respublika va viloyatlar miqyosidagi o'lkashunoslik muzeylarida eksponatlarni tanitish, lokalizatsiya qilish va tarixiy jihatdan tasniflash va tavsiflashda foydalanish mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ГУЛИСТАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ЖУРАЕВ ИЛХОМ БАХРИДДИН УГЛИ

**ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ И МАТЕРИАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА
НАСЕЛЕНИЯ МИРЗАЧУЛЬСКОГО ОАЗИСА
В НАЧАЛЕ XX-XXI ВЕКА**

07.00.01 – История Узбекистана

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам

Карши – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2022.2.PhD/Tar1088.

Диссертация была выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Ученого совета (www.qarshidu.uz), а также на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Бабаяров Гайбулла Боллиевич доктор исторических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Турсунов Сайпулла Нарзиллаевич доктор исторических наук, профессор Хасанов Акром Муминович доктор исторических наук, профессор
Ведущая организация:	Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2023 года в _____ часов на заседании Научного совета PhD 03/27.02.2021. Tar.70.05 по присуждению ученых степеней доктор философии (PhD) при Каршинском государственном университете (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог 17. Тел.: (0 375) 225-34-13; факс: (0 375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Каршинском государственном университете.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № _____). (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог 17. Тел.: (0 375) 225-34-13; факс: (0 375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2023 года
(реестр протокола рассылки № _____ от «_____» _____ 2023 года).

Б.Ж.Эшов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор

Н.Н.Ражабова
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
к.и.н., доцент

Ю.А.Эргашева
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ ((аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Одной из важных тем истории народов мира и направлений культурной антропологии является изучение исторических процессов в регионах Евразии. Особенно в контактных зонах региона Евразии исторически сложились социально-экономические и культурные связи, развитию которых сегодня уделяется большое внимание. Здесь необходимо упомянуть, что в Центральной Азии, являющейся неотъемлемой частью евразийских просторов, с древнейших времен до средневековья существовали зоны взаимных контактов между кочевниками-скотоводами и оседлыми земледельцами. Одной из таких контактных зон в Центральной Азии является Мирзачульский оазис, свидетелями которых можно стать, наблюдая за социально-политическими и этнокультурными процессами, происходившими в новейшей истории. Данная территория характерна такими свойствами, как исторический регион, где взаимодействовали как кочевые скотоводы, так и оседлые земледельцы, привлекая внимание специалистов в области нomaдологии и культурной антропологии.

В мире, в частности в Европе ведущие научные центры изучая историю Центральной Азии, большое внимание уделяют историческим реалиям, происходившим в бассейне Сырдарьи Мирзачульского оазиса. Следует отметить, что исследования, проводимые в регионе, в частности в нашей стране в историческом направлении в регионе до недавнего времени были в большей степени ориентированы на оседлую и городскую культуру, а роль кочевников-скотоводов была недостаточно изучена. Однако рассмотрение новейшей истории оазиса Мирзачуль, удобного для ведения земледелия и животноводства в силу своего географического положения, в рамках общественной жизни и этнокультурных отношений жителей этого края, занимает особое место в освещении данного вопроса.

После обретения независимости в нашем государстве появилась возможность объективно подойти к нашему прошлому. Особенно в последние годы, благодаря мерам, направленным на углубление исследований в исторической науке, стали проводиться детальные исследования прошлого каждой историко-географической области нашей страны. С этой точки зрения большое внимание уделялось исследованиям древнего Чача, Ферганы, Согда, Хорезма, Тохаристана, а также исторического прошлого региона Уструшаны, которая охватывала в себя сегодняшнюю территорию Мирзачульского оазиса.

